O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 81'373.7

Dilshoda IBRAXIMOVA,
Dotsent, PhD, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
E-mail: ibraximovadilshoda2@gmail.com , https://orcid.org/ 0009-0006-0417-1554

Professor, f.f.d N.Yo‘ldosheva taqrizi asosida

JAHON TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR (IBORALAR)NING O‘RGANILISHI: TARIXIY SHAKLLANISH, NAZARIY YONDOSHUVLAR VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR

Annotatsiya

Frazeologiya masalalari XX asr bshidan boshlab alohida ilmiy soha sifatida shakllana boshladi. Biroq bugungi kunda ham “frazeologik birlik nima?”, “uning chegarasi qayerdan o‘tadi?”, “maqol, naql, qanotli so‘z, kollokatsiya va ibora o‘rtasidagi farq nimada?” kabi savollar bo‘yicha yagona qarash mavjud emas. Ushbu maqolada frazeologik birliklar (iboralar)ning jahon tilshunosligida o‘rganilish tarixi va asosiy nazariy yo‘nalishlari borasida so‘z yuritiladi. Unda frazeologiyaning Sh. Balli asarlarida tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o‘rganılıshi hamda ularning turli nuqtai nazardan rus olımi V.V.Vınogradov, Angliya-Amerika va tilshunoslari tomonidan tadqiq etilishi qiyosiy ko‘rıb chiqiladi. Shuningdek, tilshunoslikda iboralarni o‘rganish an’analari yoritilib, frazeologik birlikning mezonlari va tasnifiga oid bahsli masalalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, ibora, frazeologik birlik, idiomatiklik, turg‘unlik, kognitiv metafora, korpus tilshunosligi, lingvokulturologiya, ko‘p so‘zli birikmalar.

ФОРМИРОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ (ФРАЗ) В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ: ИСТОРИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ, ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ

Аннотация

Фразеологические вопросы начали формироваться как отдельная научная область с начала XX века. Однако даже сегодня нет единого мнения по таким вопросам, как «что такое фразеологическая единица?», «где проходит её граница?», «в чём разница между пословицей, поговоркой, крылатой фразой, коллокацией и выражением?». В данной статье рассматривается история изучения фразеологических единиц (выражений) в мировой лингвистике и основные теоретические направления.

В статье представлен сравнительный обзор формирования фразеологии как самостоятельной отрасли лингвистики в работах С. Балли и их изучения с разных точек зрения российским учёным В.В. Виноградовым, англо-американскими и лингвистическими исследователями. Также освещены традиции изучения фраз в лингвистике и обсуждаются спорные вопросы, связанные с критериями и классификацией фразеологических единиц.

Ключевые слова: фразеология, фраза, фразеологическая единица, идиоматичность, устойчивость, познавательная метафора, корпусная лингвистика, лингвокультурология, многословные сочетания.

THE FORMATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS (PHRASE) IN WORLD LINGUISTICS: HISTORICAL FORMATION, THEORETICAL APPROACHES AND MODERN DIRECTIONS

Annotation

Phraseology issues have been emerging as a separate scientific field since the beginning of the 20th century. However, even today there is no single view on such questions as “what is a phraseological unit?”, “where does its boundary pass?”, “what is the difference between a proverb, a saying, a catchphrase, a collocation and an expression?”. This article discusses the history of the study of phraseological units (phrases) in world linguistics and the main theoretical directions. It provides a comparative analysis of the formation of phraseology as an independent field of linguistics in the works of Sh. Balli and their study from different perspectives by Russian scientist V.V. Vinogradov, Anglo-American and linguists. It also sheds light on the traditions of studying phrases in linguistics and discusses controversial issues related to the criteria and classification of phraseological units.

Keywords: phraseology, expression, phraseological unit, idiomaticity, stagnation, cognitive metaphor, corpus linguistics, linguoculturology, multi-word combinations.

Kirish. Jahon tilshunosligining yosh sohalaridan biri bo‘lgan frazeologiya bo‘limi har bir til leksik qatlamining salmoqli qismini tashkil etuvchi iboralar, maqollar, matallar, idiomalar va boshqa frazeologik birliklarni o‘rganadi. Sohaga oid nazariy asoslar esa Yevropa tilshunosligiga borib taqaladi deyishimiz mumkin. Lingvistika fanining alohida fan yo‘nalishi sifatida ajralib chiqishi uchun asos solgan Ferdinand de Sosser tilning ijtimoiy hodisa ekanligi hamda uni sinxron va diaxron tadqiq etish fikrlarini ilgari surdi va struktur tilshunoslikka tamal toshini qo‘ydi. “F.de.Sossyur o‘zining “Umumiy tilshunoslik kursi” asarida tilda tayyor iboralar bo‘lgan ko‘p sonli iboralar mavjudligini, ularning tarkibini mazmunli qismlarga ajratish mumkin bo‘lsa ham o‘zgartirib bo‘lmasligini ta’kidlagan. Tilshunos nazariyasiga ko‘ra, bunday iboralar tilda tayyor shaklda mavjud va an’analar orqali uzatiladi. Uning tilshunoslikka “parole”, ya’ni individual shaxs nutqiga oid til va nutq faoliyati tagida yotgan til tizimini anglatuvchi “langue” kabi ikki terminni taqdim etishi frazeologizmlar borasidagi Sh.Balli nazariyasi uchun yo‘l ochdi. Til tizimini tashkil etuvchi so‘zlar kishilar tomonidan nutqda turlicha jonlantiriladi. Balki yakka tartibda, balki birikma shaklida bo‘lmasin o‘z lug‘aviy markaz ma‘nosidan og‘gan til birliklari ibora - frazeologik birlik maqomi uchun munosibdir.

Iboralar borliq, inson tafakkuri va til o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar murakkabligining yorqin misoli bo‘lib, inson tomonidan borliqqa berilgan bahoda shaxsning hissiy, psixologik, tasavvuriy qarashlarining naqadar ustomonlik bilan til birliklari bo‘lgan iboralarga yuklanishi, hosila esa o‘z

navbatida asl ma’nodagi yakka so‘zga qaraganda o‘sha qarashlarning qabul qiluvchi (receiver)ga nisbatan turli ta’sir omiliga aylanishini isbot etadi. Turli ilmiy maktablar bu hodisaga turlicha yondashadi: ba’zilari uni leksikologiyaning bo‘limi deb biladi, boshqalari mustaqil lingvistik fan, yana bir qismi esa grammatika va leksikani bog‘lovchi hodisa sifatida talqin qiladi.

Tadqıqot metodologiyasi. “Har bir tilning frazeologiyasi dunyoning majoziy tasvirlarini shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Frazeologiyani bilish xalqning tarixi va xarakterini chuqurroq tushunish imkonini beradi... Frazeologik birlik tushunchasi birinchi marta fransuz tilshunoslik maktabining vakili, tilshunos Sh. Balli tomonidan shakllantirilgan. U frazeologik birliklarni “tilga mustahkam kirib kelgan kombinatsiyalar” deb atagan. L.P.Smit, A.Makkay, J.Seidlou va V.Makmordi kabi ingliz va amerikalik tadqiqotchilar frazeologik birliklarni o‘rganish bo‘yicha o‘z asarlarida “idioma” atamasidan foydalanadilar. Idioma deganda ma’no qiymati alohida elementlarining qiymatidan kelib chiqmaydigan iborani anglatadi”. Frazeologik birliklarni bir oila sifatida chegaralash va xarakterlash imkoni mavjud degan fikrni ilgari surish mumkin va ular ichki maydonda ham ma’lum guruhlarga ajraladi. Umuman olganda frazeologik birlik (idioma, barqaror, turg‘un birlik) - bu nisbiy o‘zgarmas ko‘pso‘zli ibora bo‘lib, ma’nosi ko‘pincha qisman yoki to‘liq kompozitsion bo‘lmagan va tilda an’anaviy birlik sifatida takrorlanadi. Frazeologik birlik yoki iboralarning kompozitsion ma’noga ega emasligi ortida uning komponentlari ma’nosi qisman yoki to‘liq yo‘qolishi va umumlashma bir metaforik mazmun kasb etishi tushuniladi. Frazeologik birlikning ko‘p so‘zdan tashkil topgan bo‘lishi borasidagi ta’rifni ba’zida rad etuvchi hamda bir so‘zdan iborat bo‘lishi ham mumkin degan fikr ba’zi tilshunoslar tomonidan ilgari suriladi. Bunda ular so‘zning oddiy lug‘aviy ma’nosidan tashqari turg‘un, idiomatik yoki frazeologik ma’noda qo‘llanish xususiyatiga suyanadilar. Bu kabi so‘zlar ingliz tilida e’tiborli sonni tashkil etishi mumkin. Masalan, overkill-o‘ldirib yubormoq birligi “biror narsaga keragidan ortiq kuch yoki vosita ishlatish” ma’nosini ifodalaydi. Yoki, bamboozle - esini/xayolini olmoq birligi “aldatmoq, chalg‘itmoq” ma’nosida, “skedaddle - mingga qo‘yib g‘oyib bo‘lmoq” lingvistik birligi esa “tezda qochib, ko‘zdan yo‘qolish” ma’nosida qo‘llaniladi va bu birliklarning asosida tarixan yoki semantik jihatdan turg‘un iboralar yotgan bo‘lishi mumkin. Lekin bir so‘zli idiomadan ko‘chma ma’noda qo‘llanayotgan so‘zni farqlash talab etiladi. Har qanday ko‘chma ma’noli so‘z frazeologik birlik bo‘lavermaydi. Masalan, “Jane” antroponimik birligi ibora sifatida kichik yoshdagi qizlarni anglatadi va “qizcha” tarzida tushuniladi. Ko‘pchilik tomonidan esa frazeologik birliklar ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, semantik jihatdan yaxlit va ko‘chma ma’noni anglatuvchi muqim birikma sifatida tushunadi. Demak, frazeologik birliklarning, ya’ni mening fikrimga ko‘ra umumlashma nomda iboralarning asosiy belgisi ularning turg‘unligi, semantik yaxlitligi va komponentlarining nisbiy mustaqillikdan mahrumligida deb belgilanishi mumkin. An’anaviy frazeologik nazariyaga ko‘ra bu ta’rif to‘g‘ri, lekin kengroq frazeologik yondoshuvlarda bir so‘zdan tashkil topgan frazeologik birlik ham mavjud degan fikr o‘rinli.

Umuman frazeologiyaning mustaqil fan sifatidagi rivoji XX asrning 40-50-yillariga to‘g‘ri keladi, chunki bu davrda frazeologik birliklarning tasniflari, mezonlari, rurg‘ulik, yaxlit ma’no va boshqa o‘ziga xos xususiyatlari Viktor Vinogradov, Aleksandr Kunin va Nikolay Shanskiy kabi tilshunoslar tomonidan o‘rganib chiqildi.

Muhokama va natıjalar. Ma’lumki, tilda mavjud so‘zlarning semantikasini turli yondoshuvlar asosida tasniflash mumkin. Jumladan kengayish (enlargement/extension), torayish (narrowing), umumlashuv (generalization), maxsuslashuv (specialization), ko‘chish (transfer), metafora va metonimiya kabi, irradiatsiallashuv (irradiation), amelioratsiya, pejoratsiya va boshqalar. Irradiatsiallashuv jarayonida boshlang‘ich ma’noning markazlashishi va tag ma’nolarning uning atrofida klaster ko‘rinishida joylashuvi kuzatiladi. Amelioratsiya jarayoni so‘zning ijobiy ma’no orttirishi bo‘lib, unga aks holat sifatida, pejoratsiya ya’ni salbiy ma’noning so‘zga yuklashish jarayoni amalga oshadi.

So‘z semantikasi borasida gap yuritilganda ularning komponentlashuvi va so‘z guruhlari shaklida tilda namoyon bo‘lishi alohida bir masala hisoblanadi. So‘z guruhlarini turlicha nuqtai nazardan ko‘plab tilshunoslar o‘rganib kelmoqdalar, binobarin “hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik sath tor va keng doirada tushunilmoqda, turg‘un so‘z birikmalarini ifodalovchi atamalar ham turli-tuman va bahsli ta‘riflarga egadir. So‘z birikmalari yoki so‘z guruhlarining tasnifi uchun xos xususiyatlar va shunga ko‘ra nomlash masalasi alohida o‘zganish va tadqiqtalab jihatdir. Ma’lumki, so‘z guruhlaridagi komponentlarning stabillik (muqimlik) va leksik motivatsialanganlik darajasiga ko‘ra birikmalar motivatsialangan (motivated) va motivatsialanmagan (non-motivated) guruhlarga ajratilishi nazarda tutilgan. Aynan motivatsiyalanmagan, ya’ni komponent so‘zlar ma’nosi orqali birikma ma’nosini anglash imkoni bo‘lmagan so‘z guruhlari frazeologik birliklar yoki idiomalar nomi bilan yuritiladi. Biroq, bu ta’rifni oxirgi ta’riflovchi xulosa deb bo’lmaydi.

N.Amosovaga ko‘ra, frazeologik birliklar ikki guruhga ajratiladi - frazemlar va idiomalar. Frazeologik birlik, ibora yoki maqol tushunchasi ham mutlaqo noaniqligicha qolmoqda. Bu hatto ingliz va amerikalik lug‘atlardagi “idiomalar” yoki “iboralar” deb ataladigan materiallardan ham yaqqol ko‘rinib turibdi. “Ibora” atamasi frazeologik iboralarni, maqollarni, majoziy antonomaziya misollarini (masalan, “an Apollino”, “a Boswell”), belgilangan majoziy ma’noga ega yakka so‘zlarni (masalan, “dittoes”, “backfish”) va hatto shunchaki qiziqarli ichki shakl yoki tarixga ega so‘zlarni (masalan, “banjo”, “lady”, “lord” va boshqalar) o‘z ichiga oladi [Амасова, 1963].

Idiomalarga nisbatan “iboralar” qamrovi keng bo‘lib, kuchli emotsional-ekspressivlikka, qiziqarli ichki ma’no, tarixiy asosga ega bo‘luvchi har qanday birikmalar va hatto yakka so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Metaforik mazmun kasb etish xususiyatini hisobga olgan holda so‘z yoki so‘z birikmalarining ‘ibora’ darajasida baholanish fikriga qo‘shilish mumkin. “Jahon tilshnosligida til elementlarining transformatsiyalanishi natijasida leksik ma’noni grammatik ma’noga transformatsiya qilish (ko‘chirish) asosida grammatikalizatsiya hodisasi, birikma ma’nosining so‘z ma’nosiga transformatsiyasi asosida leksikalizatsiya hodisasi yuzaga kelishi e’tirof etiladi. Shuningdek, so‘z birikmasi va frazeologik birliklarning tarkibiy va ma’noviy transformatsiyasi asosida frazeologizatsiya hodisasi yuzaga keladi” [Boltayeva, 2019]. Iboralashuv – frazeologizatsiya jarayoniga uchragan barcha lingvistik birliklarning ichki kichik guruhlarida so‘z birikmalari, turg‘un birikmalar va idiomalarga ajratilishi umuman metaforik mazmun kasb etuvchi til elementlarning anglashilishini osonlashtiradi. Iboralashish hodisasi keng qamrovga ega bo‘lib, u metaforik so‘zlar, so‘z birikmalari, paremalarni ham o‘z ichiga oladi.

Frazeologik birliklarning tasniflari borasida ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunoslarning fikrlari turlicha va ularning fikrlariga esa so‘z birikmalarini turli nuqtai nazardan o‘rganish yondoshuvlari sabab bo‘lgan. “Frazeologik birliklarni tasniflari keltirilishi barobarida tilshunoslarning qarashlarida farqlar bu masalaning muammoli jihatlarini yuzaga chiqardi. Shu sababli ular ma‘lum bir nuqtai nazarga ko‘ra bir qator guruhlarga ajratilgan, masalan, A.V.Kunin frazeologik birliklarni nutqdagi vazifalariga ko‘ra tasniflagan, V.V.Vinogradov ularning ichki motivatsiyasini hisobga olgan holda, N.Amosova ikki kichik guruhga, idioma va frazemalarga bo‘linadi, ... deya ta’rif bergan bo‘lsa, A.I.Smirnitskiy frazeologik birliklarni semantik va grammatik turg‘un aloqalari asosida tasniflashni taklif qildi va ularni so‘zlar bilan qiyoslagan holda strukturaviy tasnifni ishlab chiqdi. Biroq, frazeologik birliklarni tasniflashning eng qiziqarli jihati - onomastik komponentlariga ko‘ra tasniflash bo‘lib, ular o‘z navbatida kichiq guruhlarga bo‘linadi: antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, zoonimlar, astronimlar, kosmonimlar, xrononimlar, faleronimlar, geortonimlar, hujjatonimlar, ergonimlar, ideonimlar, xrematonimlar va biblionimlar.

Frazeologik birliklarni ularning semantik unifikatsiyasi asosida tizimlashtirishga harakat qilgan Charlz Balli o‘z klassifikatsiyasida komponentlarning stabillik (muqimlik) darajasiga asoslanadi va ularni erkin-komponentik birikmalar/kombinatsiyalar (frazeologik guruhlar) hamda muqim

ya’ni erkin harakatlanishi mumkin bo‘lmagan komponentli (frareologik unititlar) kabi guruhlarga ajratadi [Sylviane G., Meunier F., 2008]. Bu tasnifda so‘z guruhlarining ma’no xususiyatlaridan chekinish ko‘zga tashlanadi. Ingliz tili, skandinavistika, germanistika, umumiy morfologiya nazariy grammatika va german tillaridan tarjimalar ishlari bilan tanilgan tilshunos olim, professor A.I.Smirnitskiy so‘z guruhlarini ikkiga ajratadi. Unga ko‘ra, birinchi guruh metaforolik (o‘xhashlikka asoslangan ko‘chim) xususiyatiga ega bo‘lmagan, stilistik jihatdan neytral ma’no kasb etuvchi frazeologik birliklar va idiomalardan tashkil topgan. Masalan, come aross, to be in time, to do well kabi birikmalarni birinchi guruhga kiritilishi nazarda tutilgan. Tilshunosning fikriga ko‘ra faqat idiomalar so‘zlovchi aniq tushunmagan ma‘no ko‘chimiga, metaforaga asoslanadi [Смирницкий, 1998]. Idiomalar termini ostida yorqin, jonli, emotiv manzara va timsollar yarata oladigan alohida bir birikmalar nazarda tutiladi: Before you say Jack Robinson, Annie Oakley, Mother Cary’s chickens; bizningcha, aynan ingliz tilida mavjud idiomalar iboralashuvning ma’lum bir guruh sifatida ajralish, tahlil va tadqiq etilishi kerak bo‘lgan jabhasidir. Keltirilgan har uch misolimizning tarkibiy komponentlari qatorida antroponimik birlikni ko‘rish mumkin. Biroq ularning o‘zbek tilidagi ma’no muqobillarida bu holat kuzatilmaydi. Masalan, ‘before you say Jack Robinson’ iborasi ‘bir zumda’, ‘Annie Oakley’ – taklifnoma/ruxsatnoma, ‘Mother Cary’s chickens’ – ‘hamxona/osh-qatiq’ kabi mazmunni anglatadi.

Albatta, Smirnitskiy o‘z tasnifi qamrovida yana kichik struktur turlarni ko‘rsatib o‘tadi: a) frazeologik birliklar guruhining a) verb +postposition (to fall behind, come up, to be on fire); b) to be + Past Participle (to be afraid of, to be exhausted); c) preposition-nominal (in Christmas-tree order). Idiomalar guruhi ichki turlari: attributive-nominal (Yorshire kidney, simple Simon; Black Monday); verb-nominal (to shoot Niagara, to sup with Pluto); phraseological repetitions (Tom Tyler, punic faith).

A.Kunin esa frazeologik birliklarni muloqot aktida bajaradigan vazifasiga ko‘ra to‘rt asosiy guruhga, nominativ, kommunikativ, nominativ-kommunikativ va pragmatik kabilarga ajratadi [Кунин, 1996]. Kunin tasnifining e’tiborli jihati sifatida maqollar, o‘git-nasihatlarning hamda kirish so‘zi sifatida qo‘llanuvchi iboralar hamda respons (javob so‘zi sifatida qo‘llanuvchi) iboralarning e’tibordan chetda qoldirilmaganligini qayd etish mumkin, unga ko‘ra maqollar va nasihatli luqmalar frazeologik birliklarning kommunikativ guruhini, kirish so‘zi sifatida qo‘llanuvchi iboralar hamda respons (javob so‘zi sifatida qo‘llanuvchi) iboralar pragmatik guruhni tashkil etadi. O‘z navbatida u nominal guruhni uch kichik guruhlarga, ya’ni nominal, adyektiv, adverbial va prepositsional kabilarga ajratadi. Markaziy komponenti fe’l bo‘lgan uchinchi guruhni esa nominativ-kommunikativ deb ajratadi [Кунин, 1996].

Akademik V.V.Vinogradov frazeologik birliklarni idiomatiklik xususiyatiga ko‘ra tasniflaydi [Виноградов, 1977]. U frazeologik birikmalar (phraseological fusions), butunlay motivatsiyalanmagan birikmalar bo‘lib, na komponentlarining leksik ma’nosidan va na birikmaning umumiy ko‘chma ma’nosidan u tashiyotgan ma’noni anglash butunlay imkonsiz hamda yuqori darajada stabillikka ega, frazeologik birliklar (phraseological unities), aslida motivatsiyalanmagan, biroq frazeologik birlik umumiy ma’nosidan metaforik ma’noni anglash imkoni mavjud, frazeologik kollokatsiyalar, yani leksik va grammatik valentlik asosida bog‘langan tirkama so‘zlar guruhlarini ajratib ko‘rsatadi. Bunday birikmalarda valentlik masalasi alohida tadqiqtalab muammolardan biri deyishimiz mumkin.

Umuman olganda iboralar yoki boshqacha aytganda frazeologik birliklarning tasnifiga struktur, semantik, funksional, kontekstual yondoshuv samarali natijalarga yetaklaydi deyish mumkin. Frazeologik birliklari tasnifining struktur tamoyili ularning so‘zlar kabi gapda bajaradigan vazifalarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu tasnifda frazeologuk birliklarning verbal, substantiv, adyektiv, adverbial, interjeksional funksiyalari namoyon bo‘ladi. Masalan:

Verbal: to dine with Duke Humphrey, to put John Hancock, to raise Jack, to rob Peter to pay Paul, to go to Davy Jone’s locker, to assist in the French sense, jonini Jabborga bermoq, Alini ko‘rib Vali demoq.

Substantiv: Jacob’s ladder, Jack-leg lawyer, Lazy Susan, a Miss Nancy, blue-John, Omon choyxo’r.

Adyektiv: Johnny-on-the-spot, Tom o’Bedlam, as old as Adam, as bare as Job; qora Botir, Ashir qo’rqoq, Alixo’ja – Xo’jaali.

Adverbial: on/at the Greek: He came on the Greek

Interjeksional: That beats the Dutch! By the Lord Harry! For Heaven’s sake! Not for Joe!

Iboralar, frazeologik birliklar va idiomalarning hayponimik aloqalarga ko‘ra tasniflash orqali leksik-semantik guruhlar tizimini aniqlash imkoni yuzaga keladi. Masalan, tasniflagich (classifier): flower: John-go-to-bed-at-noon (nomozshomgul), forget-me-not (moychechak). Tugallangan ma’noga ega gap-iboralar frazeologik birliklar tizimida qisman bo‘lsada uchrashini qayd etish lozim. Bu kabi gaplarda so‘zlovchining turli intensiyalari, ya’ni informativ, buyruq, ogohlantirish va shu kabi maqsadlari aks etadi. Masalan: It is Geek to me - Bu menga umuman tushunarsiz! Go to Hades! - Bor, ko‘zimga ko‘rinma! Qoch, Nodir kelyapdi! (Surxondaryo viloyatida qo’llanadi. (yaqin o’tmishda sobiq milliy xavfsizlik xizmati xodimining salbiy va antigumanitar qilmishlari natijasida uning ismi komponentlashgan, ziddiyatli, xatarli vaziyat, turli xavfli shaxslarga duch kelishdan ogohlantirish ma’nosida xalq orasida iste’molga kirgan ibora) [Ibraximova, 2024].

Xulosalar. Ingliz tili lug‘at zahirasining salmoqli qismini tashkil etuvchi onomastik tarkibli frazeologik birliklar, iboralar, idiomalar, paremalar ular madaniyatini aks ettirib, xalq hayoti, tarixi, turmush tarzi, ijtimoiy, siyosiy, qarashlari, ma’naviy-ma’rifiy tafakkur dunyosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan nomoddiy boyligidir. Ularni o‘rganishga nisbatan turli yondashuv iboraning yangi bir qirrasini ochib beradi va ular bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning an’anaviy yutuqlari mavjud bo‘lsa-da, korpusli, kognitiv va psixolingvistik usullarni qo‘llash bo‘yicha keng imkoniyatlar saqlanib qolmoqda. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar umumiy tilshunoslik nazariyasi uchun ham yangi ma’lumotlar beradi.

ADABIYOTLAR

1. Амасова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград, 1963. – 208 с.
2. Балли Ш. Французская стилистика / Пер. с фр. К.А. Долинина. – Москва, 1961. – 393 с.
3. Boltayeva B.I. O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil). Fil.fan.bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) avtoref. – Samarqand, 2019. – 48 b.
4. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. - Москва. - 1977. – 210 с.
5. Goossens L. Metaphtonymy: the interaction of metaphor and metonymy in expressions of linguistic action// Cognitive Linguistics. – Berlin, 1990. – P.323–340.
6. Ibraximova D.T. Structural and grammatical features of anthroponomical units in the Uzbek language // Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation www. grnjournal.us .Vol. 2 (01). - 2024, P.42-45
7. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва, 1996. – 200 с.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, 2001. – 169 с.
9. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. –92 b.
10. Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. –Toshkent, 1983. – 189 b.
11. Смирницкий А.И. Древнеанглийский язык. – Москва, 1998. – 319 с.
12. Sylviane G., Meunier F. Phraseology: An Interdisciplinary Perspective. – Amsterdam/Philadelphia, 2008. – 422 p.
13. Телия В. Н. Русская фразеология. — Москва, 1996. – 284 с.